

**PYTHON DASTURLASH TILI YORDAMIDA O'QUVCHILARGA O'QUV-DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH**

**Umid Ortikov Alisher o'g'li**

**IT PARK Universiteti Dasturiy ta'minot muhandisligi fakulteti talabasi**

**+998915206101**

**[umiddear@gmail.com](mailto:umiddear@gmail.com)**

**Shaxzod Ortikov Alisher o'g'li**

**IT PARK Universiteti Dasturiy ta'minot muhandisligi fakulteti talabasi**

**+998906014933**

**[ortikoff@icloud.com](mailto:ortikoff@icloud.com)**

**Kalit so'zlar:** didaktika, komponentlar, didaktik vositalar, ko'nikma, malaka, model, maket, ko'rgazma, texnik vositalar, komponentlar, texnologik xaritalar, kompetentsiya.

**Annotatsiya**

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Ta'limni to'g'ri tashkil etishning asosiy komponentlaridan biri bu didaktik vositalar hisoblanadi. Didaktik vositalar va tarqatma materiallar – bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob – uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallardir. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hakoza.

Ayni paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fanida Python dasturlash tili o'tilayotganligini hisobga olib o'quvchilar savodxoligini oshirish maqsadida ularning yoshini hisobga olgan holda quyidagi sodda misollarni taqdim etamiz.



1) Seltsiy o'lchov birligida berilgan kattalikni Farengeyt o'lchov birligiga o'tkazuvchi dastur tuzing.

Berilgan  $C=37.5$ .  $F=?$

Bu masalani yechish uchun o'quvchi  $F=(C*1.8)+32$  formulani bilishi talab etiladi.

Dastur kodi:

```
C = 37.5
```

```
F = (C * 1.8) + 32 print('%0.1f Seltsiy = %0.1f Farengeytga teng ' %(C,F))
```

2) Kilometrda kiritilgan kattalikni metrga o'tkazuvchi dastur tuzing.

Bu masalani yechish uchun o'quvchi matematika fanidan kilometr va metr uzunlik o'lchov birliklari bo'yicha bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

1km=1000 metr

Dastur kodi:

```
kilometr = float(input("Kilometrda kiriting: "))
```

```
metr = 1000 print("Kilometr metrda= ",kilometr*metr," metrga teng" )
```

3) A va B sonlarni kiritish orqali ular ustida to'rt arifmetik amalnibajaruvchi dastur tuzing.

Bu dasturni tuzish uchun o'quvchi matematika fanidan "+", "-", "\*", "/", amallarini bilish yetarli.

Dastur kodi:

```
print("A sonni kiriting: ")
```

```
bir = int(input())
```

```
print("B sonni kiriting: ")
```

```
ikki = int(input())
```

```
yigindi = bir+ikki
```

```
print("A+B = ", yigindi)
```

```
ayirma = bir-ikki
```

```
print("A-B = ", ayirma)
```

```
kopaytma = bir*ikki
```

```
print("A*B = ", kopaytma)
```

```
bolinma = bir/ikki
```

```
print("A/B = ", bolinma)
```

## XULOSA

Xulosa o'rnida hozirgi kunda informatika va axborot texnologiyalari mutaxasislariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarini o'rganish va o'quvchilar bilan individual va qiziqarli

mashg'ulotlarni olib borish o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga o'quv- didaktik materiallar yaratish va ulardan foydalanish informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilaridan yuksak bilim va tirishqoqlikni talab etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Scientific Forum «National Interest, National Identity and National Security» conference February 2021
2. Yana Gudkova, Svetlana Reznikova, Maria Samoletova, and Elena Sytnikova Southern Federal University, Rostov-on-Don, 344006, Russia
3. Vasilchuk Yu V 2015 Organization of independent work of students in teaching a foreign language using ICT as an example of work in the Moodle system Collection of scientific works: Modern language education: innovations, problems, solutions 80-83 [4]
4. Kuzmina M A 2017 The role of independent work in teaching a foreign language of students of technical university” Bulletin of MSRU. Series: Pedagogics 108-114
5. Ашурова М.М. Роль компетенции учителя в повышении качества образования. Экономика и социум. №9(88)-2021.
6. Юсупова, Г. (2021). Состояние концепций моделирования обучения в системе образования. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ ВЕСТНИК НУУз, 6(6), 243-246.